



BUXORO SHAHRINING ESKI INDUSTRIAL BINOLARINI JAMOAT BINO SIFATIDA QAYTA IXTISOSLASHTIRISH

Xasanova .O'¹, Sharipov Fozil Odilovich²

¹ Buxoro muhandislik va texnologiya institute Ilmiy rahbar, ² Buxoro muhandislik va texnologiya instituti Bino va inshootlar arxitekturasini mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6570461>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

KALIT SO'ZLAR

shahar, shaharcha, shahar manzilgohi, industrial binolari eski binolar, modernizatsiya, tamirlash va qayta qurish, urbanizatsiya

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Buxoro viloyatining mustaqillik davridagi qurilish va me'morchilik holati, shuningdek urbanizatsiya, turizm industriyasi va kichikmadir tadqiqotimiz mavzusi bo'lgan Buxoro shahrining eski industrial binolarini jamoat bino sifatida qayta ixtisoslashtirish masalalari yuzasidan tahliliy fikr va mulohazalar asosli ilmiy manbalarga suyanagan holda keltirilgan.

KIRISH

Istiqlol yillarida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy islohotlar jarayonida moddiy madaniyatning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan shaharsozlikka alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev shaharsozlik haqida alohida to'xtalib: "Har bir shaharning bosh rejasi ustida ishlaganda, bino va yo'llar qurilotganda besh-o'n yilni emas, balki uzoq istiqbolni o'ylab ish yuritish lozim. Ular har tomonlama mukammal manzara hosil qilsin, shu bilan birga, pishiq va mustahkam bo'lish, nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarimizga ham xizmat qilsin", - deb ta'kidlagan edi.

O'zbekistonda zamonaviy shahar qurilishi va obodonchilik sohasida olib borilayotgan ulkan ishlarni barcha viloyat markazlari siyosida, shu jumladan Buxoro shahri

misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Bugungi kunda eng ko'hna va qadimiy shaharlardan bo'lmish Buxoro shahri ulkan qurilish maydonchasiga aylangan. Buxoro shahri qiyofasi zamonaviy tarzda qurilgan bino va inshootlar, turar joylar, yangi mehmonxonalarning qurilishi natijasida yangilanib bormoqda. Keng ko'lamli uyjoylar qurilishi jarayonida Prezident Shavkat Mirziyoevning "2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish Dasturini amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida shahar markazidagi 1950-1960 yillarda bunyod etilgan ikki qavatli kupgina ob'ektlar, bugungi kunga kelib yaroqsiz ahvolga kelib qolganligi sababli ular o'rniga yangi zamonaviy ko'p qavatli uy-joylar qurilishi boshlab yuborildi. Jumladan, 2019yilda 2670 ta xonadonli 111 ta ko'p qavatli uyjoylar qurish ishlari olib borilmoqda.



ADABIYOTLAR SHARHI

O'tgan asr 20-yillarida Buxoro tarixi, aniqrog'i shaharsozlik tarixi masalalari bilan bir guruh mahalliy o'lkashunos olimlar ham shug'ullandilar va e'tiborga sazovor natijalarga erishdilar. Taniqli tarixchi-o'lkashunos olim Muso Saidjonovning (1893-1938) bu boradagi faoliyati ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Uning "Buxoro shahri va eski binolari" nomli tadqiqoti Buxoro shahrining tarixiy topografiyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda Buxoro shahristoni, Ark va undagi imoratlar, Registon va unga tutash hamda yaqin joylarda joylashgan binolar to'g'risida ma'lumot beriladi. Ish boy tarixiy manbalar, jumladan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi", o'rta asr vaqf hujjatlari, arxeologik ashyolar asosida yozilgan va hanuzgacha o'z ilmiy qimmatini saqlab kelmoqda. Muallif V.V.Bartold, I.I.Umnyakov kabi mashhur olimlar tadqiqotlari, shuningdek, Fotih Karim tarjimalaridan ham foydalangan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mustaqillik yillarida Buxoro shahrida qurilgan turar joylarning bir necha ko'rinishi yuzaga keldi. Yer uchastkalariga ega bo'lgan ikki -uch qavatli xususiy qurilish keng tus olib, maxsus loyihalar asosida, zamonaviy talablar darajasiga qurilayotgani shahar qiyofasiga yanada ko'rk bo'lmoqda.

Ayni paytda shahar bo'ylab tobora keng tus olib borayotgan ko'p qavatli, keng, baland, go'zal, zamon talablari asosida qurilayotgan 4-5 va 7-8 qavatli mahalliy sharoitlarga mos keluvchi g'ishtli uy-joylar qurilishi rivojlandi. Ularning rejali barpo etilishi, yo'l transport bilan bog'lanishi, landshaft dizayni bilan uyg'unlashuvi,

savdo va maishiy xizmat tizimi bilan bog'lanishi shahar aholisiga qulaylik, qiyofasiga zamonaviy ruh bag'ishlamoqda. Shuni aytish joizki, ilgari shaharlarda obodonchilik ishlari, asosan markaziy ko'chalarda o'tkazilgan bo'lsa, endilikda barcha sohalarda yangilanish, qurilish va bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Uzoq yillardan buyon ta'mir talab, qarovsiz holda qolib ketgan shaharning ba'zi ko'chalari 2019 yilgi "Obod mahalla" dasturiga kiritilib, jumladan "Turki Jandiy", "G'afur G'ulom" va "Mutal Burhonov" mahalla fuqarolar yig'inlariga tegishli ko'chalar hududlaridagi ijtimoiy soha ob'ektlarini, oqava suv, toza ichimlik suvi, tabiiy gaz elektir energiyasi tarmoqlarini ta'mirlash, ko'chalarni asfaltlashtirish maqsadlariga 64,8 milliard so'm mablag' sarflandi.

Mustaqillik davri shaharsozligining innovatsion g'oyalaridan biri Buxoro shahrida tadbirkorlik ob'ektlarini o'z ichiga olgan o'rta qavatli turar joylardan tashkil topgan shahar markaziy magistrallari qad ko'tarishida namoyon bo'ldi. Bu amaliyot ana'naviy rastalarni zamonaviy texnologiyalar asosida qayta tiklash harakatidan tashkil topib, xalq uchun qulay va jahon shaharsozligida bugungi kunda qo'llanilayotgan usulga mos keladi

Buxoroning iqlim sharoitini hisobga olib, shaharsozlikda landshaft arxitekturasini qullanilgan holda bog'lar, favvoralar bunyod qilinib, innovatsion g'oyalar asosida hovuz va favvoralarni loyihalashda yangicha texnologiyalar qo'llanilmoqda, turli sug'orish uskunalari, avtomatik purkagichlardan foydalanilmoqda. Ilgari daraxtlar turi va ko'rinishiga e'tibor berilmagan bo'lsa, endilikda kashtan singari havoni yaxshi tozalaydigan, quyuq soya beradigan, tikka o'sadigan igna bargli



daraxtlar, gul va butalarning yangicha turlariga keng o'rin berilmoqda.

Shaharsozlik, arxitektura va qurilish ishlarida ma'muriy, madaniy, ma'rifiy markazlarning barpo etilishi alohida o'rin egalladi. Buxoro shahridagi Yoshlar markazi, yoshlar uchun Kovorking markazi, Kitoblar olami shuningdek, shaxarning B.Nakshband ko'chasi yokasida yangi "Baxt uyi" hamda "Davlat xizmatlari agentligi" binosi qurilib, bugungi kunda aholiga sifatli xizmat ko'rsatib kelmokda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil mart oyidagi Buxoro viloyatidagi tashriflari davomida berilgan topshiriklar hamda keng bunyodkorlik to'g'risidagi qabul qilingan qaror va farmoyishlari ijrosini ta'minlash maksadida, Buxoro shaxrida 2019 yilda 1000 dan ziyod ob'ektlar qurilishi amalga oshirilib kelinmokda. Bu qurilishlarni amalga oshirishda 15 698 nafar ishchilar jalb kilinib, shundan 6611 nafari Rossiya federatsiyadan o'zining yurtiga kaytib ishlayotganlar tashkil etadi. 2018 yil davomida 575 ta ob'ekt qurilib foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 2019 yil davomida 1494 ta ob'ekt qurib foydalanishga topshirilishi kuzda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentiniig 2017 yil 29 dekabrda PQ-3450- soili qaroriga asosan shaharda xususiy tibbiyot muassasalarini faoliyatini rivojlantirish maqsadida, 38 ta xususiy klinikalar qurish uchun yer maydonlari ajratilgan bo'lib, bugungi kunda 25 ta xususiy klinikalar foydalanishga topshirilishi arafasida turibdi. Qolgan 13 tasiniig qurilish oldi xujjatlari bugungi kunda rasmiylashtirilmoqda

NATIJALAR

Shuni aytish joizki, XX asrda shaharlar bosh rejasini ishlab chiqish jarayonida yetarlicha

e'tibor berilmaganligi, shahar yevropacha qismining bosh rejasi kompozitsiyaning negizi qilib olinib, shaharlar qiyofasida an'naviy me'morchilik va ansamblozlik ruhining yo'qolishiga olib kelgan edi. Mustaqillik me'morchiligining yana bir alomati binolarning o'zbekona an'anaviy imoratsozligiga xos bo'lgan ansambllar tarzida qurilishida namoyon bo'ldi. Buxorodagi Labi Hovuzi, Devonbegi ansambllari an'analarining davomi shaharning eski shahar qismida zamonaviy tarzda qadimgi an'analar saqlanib qolgan holda, hunarmandlar massivlari tashkil qilinib, ular uchun yangi tipdagi ustaxonalar va turar joylar bunyod etilmoqda.

Shaharsozlikning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi jarayonida kun tartibida shahar aholisining turmushi va dam olishi, o'zaro muloqoti uchun qulay muhit va shartsharoit yaratish vazifasi paydo bo'ldi. Shu asnda, yoshlarimnz dam olishlari uchun shahardagi Fitrat bog'i, "Sitara" bolalar bogi rekonstruksiya qilinib foydalanishga topshirildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ma'rifiy islomni rivojlantirish, buyuk allomalar maqbaralarini obod qilishga qaratilayotgan e'tibor xalqaro miqyosda tan olindi. Xususan, Islom Hamkorlik tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalar bo'yicha tashkiloti - ISESKO tomonidan Buxoro shahri 2020 yilda Islom madaniyati poytaxti, deb e'lon qilinishi8 yurtimiz allomalarining muqaddas dinimiz rivojiga qo'shgan ulkan hissasining yana bir e'tirofi bo'ldi. Prezident Shavkat Mirziyoevning "Abduxoliq G'ijduvoni tavalludining 915 yilligi va Bahouddin Naqshband tavalludining 700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazish to'g'risidagi" farmoni va Vazirlar



Mahkamasining 2018 yil 8 maydagi “2020 yilda Buxoro shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishi munosabati bilan amalga oshiriladigan tashkiliy-amaliy, madaniyma’rifiy tadbirlar to’g’risida”gi farmoyishida belgilangan vazifalarni bajarish bo’yicha “yo’l xaritasi” ishlab chiqilib, yetti pir ziyoratgohlarida qurilish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun 100 milliard so’mdan ortiq, shu jumladan, mahalliy byudjetdan 35,2 milliard so’m mablag’ ajratildi.

XULOSA VA MULOHAZLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustaqillik yillarida Buxoroda zamonaviy shaharsozlik siyosati tubdan yangi mohiyatga ega bo’ldi

va eski binolarning qayta ta’mirlash va jamoat industrial binolari sifatida foydalanishga topshirish jarayonlari ham sezilarli darajaga yetdi Jahon andozalarigi mos ko’p qavatli uy-joylar qurish ishlari, shuningdek shahar eski qismidagi milliylik va zamonaviylik uyg’unlashgan yangiliklar, Shahriston bozoridagi qurilish rekonstruksiya ishlari Buxoro shahri qiyofasini, tubdan o’zgartirmoqda. Hozirgi kunda viloyat aholisi va mehmonlarga qo’shimcha qulayliklar yaratish, buning uchun zamonaviy infratuzilmani takomillashtirish, shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии средневековой Бухары. Сборник Туркистанского Восточного Института в часть проф. Э.А. Шмидта, Ташкент, 1923.
2. Mavlonov A.M., Vafoev A.Q. “Buxoro viloyatida urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining ayrim jihatları” O’zbekiston va Rossiyada geografiya fani: umumiy muammolar, hamkorlik imkoniyatlari va istiqboli Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari Toshkent shahri, 2019 yil 13-19 may. 184-b
3. Soliev A.S. Shaharlar geografiyasi. T., 2019.
4. Soliyev A.S., S.Tashtayeva, M.Egamberdiyeva. Shaharlar geografiyasi. T., Barkamol fayz media, 2018.
5. K.Kamolov “Qadimiy diyorning yangilanish fasli”. Buxoronoma, 2019 yil 28-avgust (№ 69),4b.
6. Islom madaniyati bayramiga taraddud. Buxoronoma, 2019 yil 13-noyabr (№ 92), 2 b
7. Cyberleninka.ru
8. Google.com\
9. Stat.uz
10. Ziyonet.uz